

MULOQOTDA EVFEMIZM VA DISFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI

Toshtemirova Diyorakhon To'khtasinovna
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
E-mail: ⁱ diyoraxontoshtemirova07@gmail.com.
Ilmiy rahbar: **Sharipova Dilnoza**

Annotatsiya. Maqolada insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida evfemizm va disfemizmlardan qay tarzda va qanday maqsadlarda foydalanilishi keng qamrovda yoritilgan. Jumladan, ushbu til birliklarining lingvistik xususiyatlari, ularning shakllanishi, semantik va stilistik jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, evfemizm va disfemizmlarning ijtimoiy hamda psixologik ahamiyati, insonlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'rsatadigan ta'siri va nutq madaniyatidagi o'rni ilmiy asosda izohlanadi. Ushbu hodisalarning muloqotdagi funksional vazifalariga ham alohida e'tibor qaratilib, ularning turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llanishi misollar orqali yoritiladi. Ayniqsa, evfemizmlarning nutqni yumshatish, hurmat va muloyimlikni ifodalashdagi ahamiyati, disfemizmlarning salbiy emotsiyalarni ifodalash va nutqqa ekspressivlik berishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muloqot, evfemizm, disfemizm, nutq madaniyati, lingvistik xususiyatlar, semantika, stilistika, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy omillar, psixologik ta'sir.

Abstract. The article comprehensively covers how and for what purposes euphemisms and dysphemisms are used in the process of communication between people. In particular, the linguistic features of these language units, their formation, semantic and stylistic aspects are analyzed in detail. Also, the social and psychological significance of euphemisms and dysphemisms, their impact on relationships between people and their role in speech culture are explained on a scientific basis. Special attention is also paid to the functional tasks of these phenomena in communication, and their use in various communicative situations is illustrated through examples. In particular, the importance of euphemisms in softening speech, expressing respect and politeness, the role of dysphemisms in expressing negative emotions and giving expressiveness to speech are analyzed.

Keywords: communication, euphemism, dysphemism, speech culture, linguistic features, semantics, stylistics, communicative situation, social factors, psychological impact.

Аннотация. В статье всесторонне рассматривается, как и для каких целей используются эвфемизмы и дисфемизмы в процессе межличностного общения. В частности, подробно анализируются лингвистические особенности этих языковых единиц, их формирование, семантические и стилистические аспекты. Также на научной основе объясняется социально-психологическое значение эвфемизмов и дисфемизмов, их влияние на межличностные отношения и их роль в речевой культуре. Особое внимание уделяется функциональным задачам этих явлений в коммуникации, а их использование в различных коммуникативных ситуациях иллюстрируется примерами. В частности, анализируется важность эвфемизмов в смягчении речи, выражении уважения и вежливости, роль дисфемизмов в выражении негативных эмоций и придании выразительности речи.

Ключевые слова: коммуникация, эвфемизм, дисфемизм, речевая культура, лингвистические особенности, семантика, стилистика, коммуникативная ситуация, социальные факторы, психологическое воздействие.

Kirish. Muloqot inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, til uning asosiy vositasi hisoblanadi. Insonlar o'z fikrlarini ifodalash jarayonida nafaqat grammatik vositalardan, balki stilistik vositalardan ham keng foydalanadilar. Evfemizm va disfemizmlar ana shunday muhim stilistik hodisalardan biri bo'lib, ular nutqning mazmuni va ta'sirchanligini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Evfemizm nafaqat til hodisasi, balki ifoda etayotgan shaxs nuqtai nazaridan noqulay bo'lgan birliklar o'rnida qo'llanadigan so'z, so'z birikmasi yoki gap hisoblanadi. U insonning nutqiy vaziyatni ma'lum darajada yumshatish va o'zgartirishga moyilligi sifatida namoyon bo'ladi. Maqbul so'zlardan foydalanish orqali nutqda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklar bartaraf etiladi.¹

¹ *Reformatskiy, A.A. Tilshunoslik asoslari*

Tilshunos olim A.A. Refformatskiy evfemizmlarni "taqiqlangan, ya'ni tabulangan so'zlar o'rniga qo'llanishiga ruxsat berilgan so'zlar" deb ta'riflaydi. Shuningdek, lingvistik manbalarda evfemizm so'zlovchi nazarida qo'pol yoki noqulay bo'lgan ifodalar o'rnida qo'llanadigan, emotsional jihatdan neytral birlik sifatida izohlanadi.²

Disfemizm esa buning aksi bo'lib, neytral yoki ijobiy ma'nodagi so'zlarni qo'pol, keskin yoki salbiy tusda ifodalashdir. Bu hodisa nutqda salbiy emotsiyalarni ifodalash, kinoya yoki tanqidni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

² *Reformatskiy, A.A. Tilshunoslik asoslari*

Evfemizm va disfemizmlarning turlari

Evfemizmlar: *leksik evfemizmlar, frazeologik evfemizmlar, ijtimoiy evfemizmlar, professional evfemizmlar*

Disfemizmlar: *qo'pol disfemizmlar, emotsional disfemizmlar, kinoyaviy disfemizmlar.*

Disfemizm hodisasining o'rganilishi.

Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo'lishiga qaramay, u evfemizmga nisbatan kam o'rganilgan. Buning asosiy sababi madaniy muloqot me'yorlari bilan bog'liqdir. Chunki disfemizmlar ko'pincha qo'pol va noqulay ifodalar sifatida baholanib, ularni qo'llash cheklangan.

Ko'plab lingvistik lug'atlarda disfemizmga alohida ta'rif berilmay, u evfemizm doirasida izohlanadi. Masalan, "Lingvistik ensiklopedik lug'at"da disfemizm "neytral so'zni qo'pol yoki noqulay so'z bilan almashtirish" sifatida tushuntiriladi.

Misollar:

"упасть" → "загреметь"

"заплакать" → "рассопливаться"

"o'lmoq" → "сиграть в ящик"

Metodologiya va nazariy asoslar

Evfemizm va disfemizmlar tilshunoslikning pragmatika, stilistika va sotsiolingvistika yo'nalishlari doirasida o'rganiladi. Ushbu hodisalar nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, ular ko'chim asosida shakllanishi mumkin.

Har ikki hodisa dastlab nutq jarayonida yuzaga keladi, keyinchalik esa lisoniy birlik sifatida mustahkamlanadi. Ba'zi evfemik birliklar vaqt o'tishi bilan adabiy me'yor

tarkibiga kiradi va ularning subyektiv emotsional bo'yoqlari asta-sekin yo'qoladi. Natijada ular tilning sinonimik, omonimik va polisemik qatlamini boyitadi.

Evfemizm va disfemizmlarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

madaniy va axloqiy omillar

psixologik omillar

ijtimoiy muhit

pragmatik maqsad

Masalan:

“o'ldi” → “vafot etdi”

“kambag'al” → “kam ta'minlangan”

“ikkiqat” → “homilador³”

³ *Lingvistik ensiklopedik lug'at*

Analiz. Evfemizmlar muloqotda ijtimoiy muvozanatni saqlash, hurmatni ifodalash va nutqni yumshatish vazifasini bajaradi. Ayniqsa rasmiy va pedagogik muhitda ularning o'rni katta.

Disfemizmlar esa nutqqa ekspressivlik berib, salbiy emotsiyalarni kuchaytiradi. Ular tanqid, norozilik yoki kinoya ifodalashda qo'llanadi. Biroq ularning ortiqcha ishlatilishi muloqotda ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, vaqt o'tishi bilan evfemik yoki disfemik birliklarning xususiyati o'zgaradi va yangi til birliklari paydo bo'ladi.

Psixologik va ijtimoiy ta'siri

Evfemizmlar:

ijobiy muhit yaratadi

stressni kamaytiradi

insonni ruhiy himoya qiladi

Disfemizmlar:

salbiy hissiyotlarni kuchaytiradi

konflikt keltirib chiqarishi mumkin

ba'zan hissiy bo'shshish vositasi bo'ladi

Xulosa . Xulosa qilib aytganda, evfemizm va disfemizm tilshunoslikda nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim lingvistik hodisalar hisoblanadi. Evfemizm jamiyatda noqulay, qo'pol yoki eshutilishi yoqimsiz bo'lgan fikrlarni yumshoq, madaniy va muloyim shaklda ifodalashga xizmat qiladi. U insonlar o'rtasidagi muloqotda ziddiyatlarni kamaytiradi, hurmat va odob doirasida fikr almashish imkonini beradi. Masalan, hayotdan ketdi, vafot etdi kabi ifodalar “o'ldi” so'zining evfemistik ko'rinishlari bo'lib, ular nutqni yanada nozik va madaniyatli qiladi.

Disfemizm esa evfemizmning aksi bo'lib, fikrni ataylab qo'pol, keskin yoki salbiy emotsional bo'yoq bilan ifodalashdir. U ko'pincha insonning his-tuyg'ularini kuchliroq yetkazish, tanqid qilish yoki kinoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Masalan, oddiy “yomon odam” o'rniga ishlatiladigan keskinroq so'zlar disfemistik ifodalar bo'lishi mumkin. Bu usul nutqqa kuchli emotsional ta'sir beradi, lekin noo'rin qo'llansa, muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Umuman olganda, evfemizm va disfemizm nutqning ta'sirchanligi va ifodaviyligini oshiruvchi vositalardir. Ularning har biri o'z o'rniga ega bo'lib, evfemizm ko'proq yumshoqlik va madaniyatni ta'minlasa, disfemizm keskinlik va hissiy kuchni oshiradi. To'g'ri vaziyatda va maqsadga muvofiq ishlatilganda bu ikki hodisa tilning boyligini ko'rsatadi hamda muloqotni yanada rang-barang va mazmunli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reformatskiy, A.A. Tilshunoslik asoslari
2. Lingvistik ensiklopedik lug'at
3. Hojiyev, A. Lingvistik terminlar izohli lug'ati (2002)
4. Allan, K., Burridge, K. Forbidden Words